

 Sahifani PDF tarzda yuklab olish (69 Kb)  Versiyasi  Sahifani doc tarzda yuklab olish (69 KB)

2016 yilning 9 oy yakuni

2016 yilning 9 oyligida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari, joriy yilning 15 yanvarda respublika Hukumati majlisida 2016 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim yunalishlari va ustuvor vazifalarini soʻzsiz bajarish uchun mavjud rezervlarni safarbar etish, shuningdek keyingi yillarda iqtisodiy oʻsishning yanada barqaror yuqori surʼatlarini taʼminlash yuzasidan kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Yuqorida siz oʻzingizning maʼruzangizda qayd etib oʻtganingizdek, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil yakunlariga bagʻ ishlangan majlisida belgilab bergan asosiy vazifalarining soʻzsiz bajarilishini taʼminlash natijasida hisobot davrida Qoraqalpogʻiston Respublikasida-ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning istiqbolli reja koʻrsatkichlari bajarilishi taʼminlandi.

Xususan, yalpi hududiy mahsulot hajmi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 118,0 foizga (*reja 117,5%*), sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 191,7 foizga (*reja 174,0%*), xizmatlar 113,4 foizga (*reja 112,9%*) va qurilish ishlari 105,2 foizga oʻsishi taʼminlandi.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini etishtirishda 6,3 foizga (*reja 107,8%*) oʻsishga erishildi.

Maʼlumot uchun: joriy yilda 100 ming tonnadan ortiq bugʻdoy (*reja 85,3 ming tonna*) va **15.10.2016 yil holatiga** 170 ming tonna paxta etishtirilib, davlatga topshirildi. (Reja 188,2 ming tonna 90%).

Hisobot davrida kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi **55,9 foizni** tashkil etdi. (*2015 yilning 9 oyida 66,7%*).

Shuningdek, “2016 yilda ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish dasturi” asosida hisobot davrida umumiy qiymati **144,0 mlrd.soʻmlik** investitsiyalar oʻzlashtirilib, **1807 ta** loyihalar amalga oshirildi va natijada **8085 ta** yangi ish oʻrinlari yaratildi.

Jumladan:

Sanoat yoʻnalishi boʻyicha - **234 ta** (*qiymati 54,7 mlrd.soʻm, 3626 ta ish oʻrini*);

Xizmat koʻrsatish va servis yoʻnalishi boʻyicha - **1168 ta** (*qiymati 61,2 mlrd.soʻm, 2968 ta ish oʻrini*);

Qishloq xoʻjaligi yoʻnalishi boʻyicha - **405 ta** loyiha amalga oshirildi. (*qiymati 28,2 mlrd.soʻm, 1491 ta ish oʻrini*)

Misol uchun,

- Nukus shahridagi “Kardar ishlab chiqarish mahsulotlari” MChJ da qiymati 500 mln.soʻmlik investitsiyalarni oʻzlashtirish hisobiga briket ishlab chiqarish;

- Ellikqalʼa tumanidagi “El rozi Nur” MChJda qiymati 250 mln.soʻmlik investitsiyalarni oʻzlashtirish hisobiga vermikulit asosida issiqlik saqlovchi quruq qurilish materiallari ishlab chiqarish;

- Amudaryo tumanidagi “Jayxun qurilish mollari bazasi” MChJda qiymati 550 mln. soʻmlik investitsiyalarni oʻzlashtirish hisobiga polietilen quvurlarni ishlab chiqarishni kengaytirish loyihalari amalga oshirildi.

Koʻrilgan ushbu chora-tadbirlar natijasida hududlarda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashiga, korxonalar raqobatbardoshligi oshishiga zamin yaratmoqda.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Oʻzingizning topshirigʻizga asosan joriy yilning sentyabr oyida Xodjaev Botir Asadullaevich boshchiligida ishchi guruh bilan birgalikda hududlarni, yaʼni shahar va tumanlarini 2017-2021 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ishlab chiqildi.

Mazkur dasturda odamlarning hayoti va kayfiyatini yanada yaxshilaydigan sohalaridagi ishlarni jonlantirishga va mavjud muammolarni bartaraf etib, qulayliklar yaratish masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan.

Xususan, Qoraqalpogʻiston Respublikasida yaqin 5 yil davomida **yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiyalash, xizmat koʻrsatish va servisini rivojlantirish, qishloq xoʻjaligi sohalari** boʻyicha umumiy qiymati **2,9 trillion soʻmlik 5543 ta** investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmogʻda.

Eng yirik loyihalardan boʻlgan, Muhtaram birinchi Prezidentimizning 2014 yil 17 noyabrda qarori asosida «Oʻzmetkombinat» AJ tomonidan Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qoraoʻzak tumanida “Tebinbuloq” konidagi titanomagnetit rudalaridan foydalanib, temir konini ishlab chiqish bilan birga choʻyan (chugun) ishlab chiqarish loyihasi (I-bosqichi) amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Bu loyiha amalga oshirilishi natijasida Qoraoʻzak tumanida yirik zamonaviy metallurglar shaxarchasi barpo etilib, 2000 dan ortiq yangi ish oʻrinlari tashkil etilishi kutilmogʻda.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

dasturiga asosan 2016 yilning yanvar`-sentyabr` oylarida **5 ta korxonada 4,7 mlrd.so`mlik** mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi. (2016 yil rejasi 7,3 mlrd.so`m).

Ma`lumot uchun, korxonalar kesimida:

-“Qaraqalpaq Vermi Invest” MChJda 906,7 mln.so`mlik 533,4 tonna vermikulit konsentratini ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo`lib, amalda 906,7 mln.so`mlik 533,4 tonna (reja 100%) vermikulit konsentratini;

-“Sverxbelproekt” MChJda 736,7 mln.so`mlik 433,4 tonna vermikulit konsentratini ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo`lib, amalda 736,7 mln.so`mlik 433,4 tonna (reja 100%) vermikulit konsentratini;

-“Nurbek Oq Oltin” XKda 240 mln. so`mlik 1200 dona akkumulyator mahsulotlarini ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo`lib, amalda 260 mln.so`mlik 1300 dona (reja 108,3%) akkumulyator mahsulotlari;

- “Qoraqalpog`steklotara” MChJda 2600 mln. so`mlik 6,5 mln. dona steklotara ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo`lib, amalda 2600 mln. so`mlik 6,5 mln. dona (reja 100%) steklotara ishlab chiqarish;

- "Elrozi nur" MChJda 199,7 mln.so`mlik 192 tonna vermikulit konsentratini ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo`lib, amalda 210,1 mln.so`mlik 202 tonna (reja 105,2%) vermikulit konsentratini ishlab chiqarilgan.

Bundan tashqari mahalliyashtirish dasturiga qo`shimcha yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan barcha shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda, «UstyurtGazzimiyaKompleksi» tomonidan ishlab chiqarilayotgan polipropilen va polietilen mahsulotlaridan ishlab chiqarish bo`yicha **37 ta** loyihalarning taklifi ishlab chiqildi. Shundan **20 ta** loyihaning

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz va Hukumatimiz tomonidan berilgan topshiriqlarga muvofiq xo`jalik boshqaruvi organlarining davlat aktivlari va ulushlarini xususiy mulkka sotish, shuningdek xorijiy investorlarni aktsiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitalariga jalb etish bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Muhtaram Birinchi Prezidentimizning 2015 yil

28 aprelida qabul qilingan “Iqtisodiyotda xususiy mulkchilik ahamiyati va ulushini oshirish to`g`risida”gi 2340-sonli qaroriga muvofiq Qoraqalpog` istonda:

- tadbirkorlarga investitsiya kiritish sharti bilan berish belgilanib, amalda barchasi **41 ta ob`ekt “nol” qiymatda tadbirkorlarga sotilib, 3 ta ob`ekt sotilib bekor qilindi va qayta savdoga chiqarildi.** Ushbu ob`ektlarda 23,3 mlrd. so`m investitsiya kiritish va 834 ta yangi ish o`rinlarini yaratish belgilandi.

- sotish rejalashtirilib, ushbu ob`ektlarning barchasi savdoga chiqarildi va bugungi kunga qadar **12 tasi** tadbirkorlik sub`ektlariga sotildi.

Qolgan 19 ta ob`ektlar va boshqa Hukumat qarorlariga asosan ommaviy savdolarga chiqarilgan lekin bugungi kunga qadar sotilmagan **37 ta, jami 56 ta ob`ektlar bo`yicha** hokimliklar va balansta saqlovchilar bilan birgalikda ob`ektlardan maqsadli foydalanish bo`yicha takliflar ishlab chiqilib, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi (Vazirlar Kengashining 2016 yil

9-iyun`dagi 01-03/2-06/251-sonli xati) va **Hurmatli Shavkat Miromonovich o`zingizning topshirig`ingiz (№02/1-267, 08.06.2016 yildagi topshiriq) bilan Davlat tender komissiyasi muhokamasiga kiritildi.**

Jumaldan, 33 ta ob`ektlar (Vazirlar Mahkamasining

05.08.2016-yildagi 252-sonli qarori va boshqa qarorlarga muvofiq) «Nol`» harid qiymatida investorlarga sotilishi belgilab olindi, qolgan **23 ta ob`ektlarni** ochiq savdolarga chiqarilgan.

- buzish va bo`shagan er maydonlarini tadbirkorlarga berish belgilanib, **amalda barcha ob`ektlar to`lig`i bilan buzildi.**

Buzishdan bo`shagan 28,7 gektar er maydonlarining **barchasi tadbirkorlik sub`ektlariga berildi va ular ushbu bo`shagan er maydonlariga o`zlarining ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish ob`ektlarini qurishni boshlamogda.** (58 ta xizmat ko`rsatish va savdo sohasiga, 4 tasi sport maydonchalarini qurishga, 1 tasi sanoat sohasiga va 1 tasi “Kamolot” uyini qurishga)

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Bugungi kunda Qoraqalpog`iston Respublikasida bo`yicha jami

22 ta aktsiyadorlik jamiyati davlat ro`yxatiga olinib, **20 ta** jamiyatning ustav fondida davlat ulushi mavjud.

Muhtaram Birinchi Prezidentimizning 2015 yil 21 dekabrda «Aktsiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo`chimsha chora-tadbirlar to`g`risida»gi PQ-2454-sonli Qaroriga asosan **22 ta aktsiyadorlik jamiyatlaridan:**

2 tasining aktsiya paketlari xorijiy investorlarga sotilgan,

2 tasi “O`zbekoziqovqatxolding” Xolding Kompaniyasi va “O`zagroeksport” ustav fondini shakllantirishga yo`naltirildi, **1 tasi** (“Kommunallik issiqlik orayi” AJ) davlat unitar korxonasiga aylantirildi,

7 tasining aktsiya paketlari sotuvga chiqarilgan, **2 tasi** boshqa mulkchilik shakliga, ya`ni MChJga aylantirilishi belgilandi hamda

8 tasi strategik ahamiyatga ega (aktsiya paketi sotilmaydigan) aktsiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi.

Jumladan korxonalar kesimida:

- **1 ta** ("Qoraqalpaqboyan") aktsiyadorlik jamiyati ustav fondining 25% aktsiya paketini Xitoy Respublikasining "Gonkong Xuyuan investment limited" («HONGKONG HUAYUAN INVESTMENT LIMITED») kompaniyasi sotib oldi;

- **1 ta** ("Nukusvinozavodi") aktsiyadorlik jamiyatining 15,03% aktsiya paketi Rossiya Federatsiyasi fuqarosi nomiga rasmiylashtirildi.

- **2 ta** aktsiyadorlik jamiyati, xususan "Chimboy may" aktsiyadorlik jamiyati ustav fondidagi 90,2% davlat aktsiya paketi "O`zbekoziqovqatxolding" Xolding Kompaniyasi ustav fondini shakllantirish hamda "Qoraqalpog`o` shtutsavdo" aktsiyadorlik jamiyati ustav fondidagi 25 % davlat ulushi "O`zagroekspart" aktsiyadorlik jamiyati ustav fondini shakllantirish maqsadida yo`naltirildi;

- **7 ta** aktsiyadorlik jamiyatlarining qo`shimcha aksiyalar chiqarilib, baholanib sotuvga chiqarildi ("Turon xo`jayli", Beruniy "Yoggar", "Taxiatosh don mahsulotlari", "Qo`ng`irot un zavodi", "Qoraqalpoqdonmahsulotlari", "Qoraqalpoqavtotexxizmat" "Nukus dehqon bozori".).

Bugungi kunda mazkur aktsiyadorlik jamiyatlarining Kuzatuv kengashlari tomonidan sotuvga chiqarilgan aksiyalarning narxini 10% qadamba-qadam pasaytirish mexanizmlari qo`llanilib 50%gacha tushib kelgan.

Shuningdek, sotilishi mo`ljallangan aktsiya paketi, jamiyat to`g`risidagi pasport ma`lumoti va investitsion taklif, reklama roliklari, slaydlar rus va ingliz tillarida tayyorlab veb-saytlarga joylashtirilib, hududiy ommaviy axborot vositalarida chop etildi va «Uzbekistan Today» jurnaliga e`lonlar joylashtirildi.

- **1 ta** "Kommunalik issiqlik orayi" aktsiyadorlik jamiyatini Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2-iyundagi 182-sonli qaroriga muvofiq, davlat unitar korxonasiga aylantirildi.

- **2 ta** aktsiyadorlik jamiyatlarining ("Qoraqalpoqqishloq-xo`jalikimyo" va "Qoraqalpaq MTP Birlashmasi") Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5 avgustdagi 252-sonli Qarorga asosan boshqa mulkchilik shakliga, ya`ni MChJga aylantirilishi belgilandi.

Shuningdek, **8 ta** ("Taxiatosh issiqlik elektr stantsiyasi", "Qoraqalpoq elektr tarmoqlari" va 6 ta paxta tozalash zavodlari) strategik xom ashyoni dastlabki qayta ishlash sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi, shuningdek tabiiy monopoliya sub`ektlari hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan tovarlar va xizmatlarni tartibga solib boriladigan narhlar bo`yicha etkazib beruvchi aktsiyadorlik jamiyatlar hisoblanadi.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri bu yangi ish o`rinlar yaratish natijasida aholining bandligini ta`minlash hisoblanadi.

Ushbu vazifalardan topshiriqlardan kelib chiqqan holda Qoraqalpog`iston Respublikasida ham bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmog`da.

Shularga muvofiq 2016 yilning yanvar-sentyabr oylarida **38 ming 658 ta** yangi ish o`rinlari tashkil etilib, belgilangan reja 101,4 foizga bajarildi. (9 oylik reja 38108 ta, 2016 yil rejasi 49863 ta)

Yaratilgan ish o`rinlarining:

83,8 foizi (amalda 32380 ta; reja 32233 ta; 100,5%) qishloq joylarida va 24,3 foizi (amalda 9403 ta; reja 9295 ta; 101,2%) xotin qizlar uchun tashkil etildi.

Shuningdek, 2015-2016 o`quv yilida kasb-hunar kollejlarni bitirgan 23830 o`quvchining - 20154 tasi (84,6%) bandligi ta`minlangan va 2974 tasi (12,5%) ishga joylashtirish jarayonida;

Hurmatli majlis qatnashchilari!

2016 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim yunalishlari va ustuvor vazifalaridan biri "Sog`lom ona va bola yili" Davlat dasturining ijrosini ta`minlash hisoblanadi.

Qoraqalpog`iston Respublikasida "Sog`lom ona va bola yili" hududiy dasturini amalga oshirish uchun jami **312,9 mlrd.so`m va 6,6 mln. AQSh dollar** miqdorida mablag`lar o`zlashtirilishi belgilandi va moliyalashtirish manbalari aniqlandi.

Joriy yilning o`tgan davrida dastur asosida - **321,8 mlrd.so`m** (yillik reja 312,9 mlrd.so`m; 102,9 foiz) va - **2 mln. 467,1 ming AQSh dollar** (yillik reja 6618,6 ming AQSh dollar; 37,3 foiz) mablag`lar o`zlashtirildi.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Biz bu amalga oshirayotgan ishlarimizni yanada jadallashtirib, 2016 yilga belgilab bergan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor vazifalarining so`zsis bajarilishini ta`minlashning barcha choralarini ko`ramiz. Bunda:

Birinchidan, 2016 yilda Yalpi hududiy mahsulot hajmining o`shish sur`atini 115,5 foizga, sanoat mahsuloti hajmini 164,6 foizga, qishloq xo`jaligi mahsulotlari hajmini 106,5 foizga, jami xizmatlar hajmini 113,3 foizga o`shishini ta`minlash;

Asosiy ko`rsatkichlar	2016 yil		2017 yil (prognoz)	
	Xajmi (mlrd.so`m)	O`shish sur`ati (foiz)	Xajmi (mlrd.so`m)	O`shish sur`ati (foiz)
Yalpi hududiy mahsulot	5575,9	115,5	5689,0	109,8
sanoat mahsuloti	2899,7	164,6	4873,6	119,1
xalq iste`moli mollari	836,9	112,8	1388,5	112,3
qishloq xo`jaligi mahsuloti	1455,2	106,5	1551,2	106,6

investitsiyalar	3348,4	50,5	3945,5	105,3
qurilish ishlari	1302,9	108,5	1318,9	100,2
chakana savdo aylanmasi	2714,0	111,6	3274,5	112,0
xizmatlar jami	2604,3	113,3	3108,9	113,8
pullik xizmatlar hajmi	1198,9	106	1468,6	106,5

Ikkinchidan, 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi asosida qiymati **304,2 mlrd.so`mlik 2016 ta** loyihani amalga oshirish va **10039 ta** yangi ish o`rinlarini yaratish;

Uchinchidan, **33 ta davlat ob`ektlarni** «Nol`» harid qiymatida investorlarga sotilishi hamda **23 ta ob`ektlarni** ochiq savdolarida tadbirkorlarga sotish choralarini ko`rishimiz;

To`rtinchidan, 2016 yilda aholi bandligi dasturi asosida **50 mingga yaqin** yangi ish o`rinlarini yaratishimiz zarur.

E`tiborlaringiz uchun rahmat!

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)